

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA INXOATIVLIKNING IFODALANISHI

**Imamov Navruz Pattaqulovich**

Samarqand davlat chet tillar instituti mustaqil izlanuvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ikki tilda inchoativlikning ifodalanishi hamda matnda qanday, ma’noni ifoda etishi shu kabi komponentlarni o’z ichiga olishi tahlil qilingan. Ayrim analitik ko’rsatkichlar etakchi fe’llar ifodalagan ma’noni boshlang’ich nuqtasini ifodalovchi vositalar misollar yordamida yoritib berilgan.

**Annotation:** In this article, the expression of inchoativeness in two languages and how it expresses the meaning in the text includes such components. Some analytical indicators are explained with the help of examples, means that represent the starting point of the meaning expressed by leading verbs.

**Аннотация:** В данной статье выражение инхоативности в двух языках и то, как оно выражает смысл в тексте, включает в себя такие компоненты. Некоторые аналитические показатели поясняются с помощью примеров, средств, которые представляют собой отправную точку значения, выражаемого ведущими глаголами.

**Kalit so’zlar:** faol, passiv, inchoativ, morfologik va analitik ifoda, semantik xususiyat, predikativ aktant, kuzatuv nuqtasi, etakchi, ko’makchi fe’llar.

**Ключевые слова:** активное, пассивное, начальное, морфологическое и аналитическое выражение, семантический признак, предикативный актант, точка наблюдения, ведущие, вспомогательные глаголы.

**Key Words:** active, passive, inchoative, morphological and analytical expression, semantic feature, predicative actant, point of observation, leading, auxiliary verbs.

“Inchoative” lingvistik atamasi haqida aniq fikrlar berilmagan. Ba’zi olimlar bu atamani “inceptive” va “ingressive” bilan sinonim tariqasida ishlatadilar, bu holat yoki faoliyatning boshlanishini ifodalovchi aspektual shaklga ishora qiladi deb ta’kidlashadi. Ammo, inchoativ atamasi grammatikashunoslar tomonidan boshqa ma’noda ham, holat o’zgarishini bildiruvchi fe’l sifatida “ergative” yoki “middle” (“ergativ” yoki “o’rta”) so’zi bilan sinonim sifatida qaraladi. Ma’lum bir tilni o’rgatish va o’rganishda passiv va inchoativ o’rtasidagi qarama-qarshilik muhim rol o’ynasada, deyarli barcha grammatik materiallarda bunga unchalik e’tibor qaratilmagan.

“Inchoativ” atamasi U.Cheyfom tomonidan “Tilning ma’nosi va tuzilishi” M., 1975 deb nomlangan kitobida bir qator ingliz tilida fe’llarining semantik jihati bayoni keng qo’llangan. Bir holatdan ikkinchi holatga o’tishni anglash, inchoativlik hodisasining muhim belgilaridan biri hisoblanadi. Uning mazmunini aniqlash va boshqa tushunchalardan farqlash uchun harakat tushunchasi bilan taqqoslash zarur. Holat tushunchasi odatda jismoniy holat, ruhiy holat, kayfiyat, aqliy holat kabilarni qamrab oladi.

Umuman olganda inchoativlik tushunchasi, turli xil tillarni taqqoslash uchun semantik asosni o’z ichiga oladi. Inchoativlikning asosiy semantik xususiyatlari universal deb hisoblash mumkin [O. Axmanovoy, 1966; 51, 75,].

Lingvistikaga oid adabiyotda “inchoativ fe’llar” atamasi holatning boshlanishi, holatning o’zgarishi yoki bir holatdan ikkinchisiga o’tish ma’nosini bildiruvchi fe’llarni belgilash uchun juda keng qo’llanilgan. Ko’rsatilgan grammatik voqeelikni

rivojlanishining turli bosqichlarida bir holatdan ikkinchi holatga o'tish jarayonini bildirganligi sababli, til birliklarining belgilagan jarayonga munosabatini ajratib olish va uni semantik jihati nazaridan ko'rib chiqish mumkindek ko'rinadi.

O'zbek tilida inxoativ ma'noni ifodalovchi analitik shakillarni o'rganish jarayonida aniqlangan farqlar, asosan, bu birikmalardagi yetakchi fe'lining leksik ma'nosiga asoslanadi. Ingliz tilidagi inxoativ analitik konstruksiyalarda predikativ aktantning xilma-xilligi, birinchi navbatda, birinchi elementning semantik muvofiqligi bilan bog'liq bo'lib, bu asosan turg'un iboralarni tashkil qiladi. Qiyoslanayotgan tillardagi analitik konstruksiyalarning birinchi komponenti o'zbek va ingliz tillarining grammatik tuzilishi bilan belgilangan muvofiqlik qoidalari bilan tavsiflanadi. Ingliz tilida inxoativ birikmalar o'zbek tilidagi analitik shakillardan farqli o'laroq, analitik konstruksiyalarni fe'l+poslilog, ya'ni adverbial birikishi orqali hosil bo'ladi. Ingliz tilida morfologik va analitik ifoda vositalarining inxoativ ma'no ifodalashi leksik asosga ko'ra belgilanadi. Bizningcha, inxoativ ma'noga ega fe'l va analitik birliklar faollashuvi kontekstdagi qo'shimcha adverbiallar semantikasiga inxoativ fe'llarning leksik ma'nosi ushbu mazmunni vositalarning ma'no ko'lamidan farq qiladi. Ingliz tilida analitik vositalarning mavjudligi alohida lingvistik hodisa sifatida o'rganilishi lozim.

Tilda yashirin vositalarning paydo bo'lishi va amal qilishi, bizningcha, so'z yasalanishining affiksial usulining samarasizligi va yetarli emasligi bilan bog'liq. Ushbu ifoda vositasining ingliz tilidagi faollashuvchi konstruktiv xususiyatga ega bo'lib, bu ma'lum tuzilmalarning alohida semantikasi mavjudligi bilan izohlanadi. O'zbek va ingliz tillari uchun inxoativlik alohida hodisa bo'lib, uni o'rganish davomida olingan natijalar inxoativlikning funksional-semantik maydondagi tarkibiy jihatdan va ifoda vositalariga ko'ra taqqoslangan tillarida xilma-xilligiga guvoh bo'ladi. Xususan, o'zbek tilida faza fe'llaridan tashqari qator ko'makchi fe'llar istalgan fe'l bilan birikishi natijasida inxoativ semantikasi yuzaga keltiradi. O'zbek va ingliz tillarida inxoativlikka funksional-semantik maydon tarkibiy qismlari sezilarli ta'sir ko'rsatishi shubhasizdir. Ammo, bu ta'sir ishtirok etuvga elementlarning leksik xususiyatlar bilan farqlanadi.

Statik predikat odatda durativ aspekt sifatida qayt etiladi. Ammo, ingliz tilidagi "How long?", "How long did we wait?", "How long were the children hungry?" kabi so'roq gaplar vaqt oralig'iga ishora qiladi. Ushbu savollarga javob berishda aniq ko'rsatilgani temporal adverbiallarga (for in hour, all day, from 5 till 7, during the holiday) murojat qilamiz. Stativ ravishlar ma'lum vaqt davomida o'zgarmaydigan vaziyatni bildiradi. Shunday qilib, agar "Akmal ertalabdan beri boshi og'riyapti" degan gapni olsak ertalab Akmalning boshi og'rishi boshlangan degan talqin paydo bo'ladi. Buni boshqacha aytganda, stativ predikatsiya ikki xil qismlardan tashkil topgan vaziyatni bildiradi ya'ni, bular inxoativlik va durativlikdir. Adverbiallar doimiy va o'zgarmas holatni taklif qiladi, lekin ularning bir paytni o'zida ikki xil aspekt ma'nosini yuzaga kelishiga ham sabab bulishi mumkinligi kuzatiladi. Bunda holat o'zgarishini ifodalashi va durativlikni anglatishi mumkin. Muayyan kontekstlarda inxoativ predikatlar boshlanishini ifodalovchi ma'lum fe'l yoki iboralar yordamida amalga oshiriladi. Masalan: fall asleep, go away, spring up va hakazo.

Har qanday fe'lining prosessualigi kategorial belgini anglatuvchi vazifani bajaradi [Nasilov D.M. Проблемы тюркской аспектологии "Наука", 1989, с. 43, с. 211.]. D.Nasilov tadqiqotlarida aspektual semantikasi fe'l bo'lmagan turi sifatida talqin etiladi. Fe'l bo'lmagan aksionallik harakatning aniq yoki aniq bo'lmagan miqdoriy ko'rsatgichi, takrorlanishi, intinsivligi, davomiyligi kabi hodisalarni anglatadi. Muallif bunga o'zbek tilidagi marta, safar, gal, (bir necha marta, ko'p marta), kam, sekin, bir necha bor, har safar va shu kabilarni kiritadi [Nasilov 1989, p. 91].

A.Xojiev o'zbek tilidagi voqea-hodisa kechimini ko'makchi fe'llar yordamida faollashuvini yetti fazaga ajratadi: harakatning boshlang'ich bosqichi, harakatning bajarilish bosqichi, harakatning to'liq bajarilishi, yangi holatning yuzaga kelishi, ish harakatning kechimi, harakatning intinsiv rivojlanishi, ish-harakatning davomiyligi. Bundan tashqari harakatning susaygan harakat bosqichlari ham qo'shiladi (normal yoki to'liq darajaga etmagan), yakunlanishiga, oxiriga yaqinlashgan harakat [Hojiev 1975, p. 411; 1979, p. 65-66] kabilar ham kiritiladi. Oxirgi bosqich deyarli, qariyb amalga oshirilgan harakat ma'nosini bildiradi. Bundan ko'rinadiki, jarayon rivojlanishining ketma-ket bosqichlari alohida hodisa sifatida baholanadi. Jarayonning kechimini bildiruvchi fazalar ham alohida semantik hodisaga tegishli. A.Xojiev tasnifida jarayondan keyingi harakat natijasida vujudga kelgan holatning mavjudlik bosqichini ko'rsatuvchi faza ham qo'shiladi. Bu shuni anglatadiki, bu bosqich faqat yangi holatni paydo bo'lishi ko'makchi fellar semantikasiga xos bo'lishi mumkin. Ammo, ko'makchi fe'llarda sinonimik xususiyat mavjud bo'lsada, ular orasida farqlanishlarni kuzatish mumkin. Masalan: gapira boshlamoq (umumiy inxoativ ma'no), gapira ketmoq (intinsiv rivojlangan inxoativlik), gapirib yubormoq (tasodifiy inxoativlik). Shu bilan birga, jarayonning tugashini ta'minlaydigan ko'makchi fe'llarda ham maxsus tugallanish semantikasi mavjudligini qayd etilishi mumkin. Masalan: gapirib bo'lmoq, gapirib tugatmoq, gapirib tashlamoq, gapirib quymoq. Ko'rinib turibdiki yuqorida keltirilgan ma'lum fazada turli xil jarayonni ifodalashga guvoh bo'lishimiz mumkin. A.Xojiev o'zbek tilidagi faza ma'nolar va ularni ifodalash vositalarini tahlil qilish jarayonida ichki ma'noni izchil aniqlashga e'tibor qaratmagan. D.Nasilov va B.Rizayevlar fazalar orasidagi bog'lanishlarni murakkab lingvistik hodisa sifatida baholashadi [Nasilov, Rizaev 1983, b. 81-82].

O'zbek tilida ish-harakatning boshlanishini ko'rsatishning leksik va morfologik usullari mavjud. Ko'rib chiqilayotgan inxoativlikni ifodalashning morfologik vositasi sifatida analitik vositalar tarzida keltirish mumkin. O'zbek tilidan farqli ravishda ingliz tilida **begin** fe'li bilan gerund (infinitive) birikmalaridan hosil bo'lgan analitik konstruksiyadan kelib chiqadi. Begin +gerund (inf) birikmasini jarayon boshlanishining grammatik semantikasi bilan murakkab format deb baholash mumkin. I.P.Ivanova bunday shakllanishni sintaktik xarakterdagi hodisa sifatida baholaydi [Ivanova, 1966]. Ushbu fikrga mantiqan to'g'ri deb hisoblash mumkin. Darhaqiqat, bu holda aniq leksema bilan ifodalangan boshlanishni ifodalashning leksik usuli mavjud bo'lib, uning semantikasi morfologik analitik ko'rsatkichlar semantikasiga to'g'ri keladi. Mazkur vaziyatda tarkibni emas, balki uning tilda qanday ifodalanishini alohida ajratib ko'rsatish muhimligini qayt etish joizdir.

O'zbek tilida ish-harakatning boshlanishini ko'rsatishning leksik va morfologik usullari borasida yuqorida fikr yuritdek. Inxoativlik ifodalashning leksik vositasi sifatida esa "boshlamoq" ko'makchi fe'li, shuningdek, ushbu fe'lning asosiy fe'l sifatida faollashuvi nazarda tutiladi.

O'zbek tilida -ib ket, - a ket, - ib boshla, - ib yubor modellari jarayonda kirish harakatning boshlang'ich nuqtasi, inxoativ boshlanishi, boshlangan harakatni rivojlanishi, holat o'zgarishi, yangi holatga o'tish kabilarni anglatadi. Umuman olganda, ushbu modellar ishtirokidagi harakat va holatning o'zgaruvchan bo'lishini ko'rsatadi. Bunda asosiy jarayon harakat boshlanishi momentidan keyingi holat sifatida ifodalanadi. Bundan tashqari - a boshla semantikasi maqsadni anglatuvchi holatning statik xarakterini o'zgarishiga olib keladigan jarayonni anglatadi. O'zbek tilidagi -ib modeli etakchi fe'lning leksik ma'nosidan kelib chiqqan holda iterativlikni ifodalash uchun ishlatiladi. Ushbu ko'makchi fe'l ishtirok etgan analitik shakllar harakat yoki jarayonni to'satdan yuzaga kelishini bildiradi. Masalan: qichqirib yubormoq, baqirib yubormoq, gangrub yubormoq, gapirib yubormoq va hakazo. Masalan: (-b yuborgan). O'zbek tilidagi ket, qol- va yubor

ko'makchi fe'llari bilan yuqoridagi uchta model jarayonlarning namoyon bo'lishining boshlanishini xarakterlaydi. Ushbu ko'makchi fe'llar ingressiv semantikasi bilan harakatni boshlang'ich paytini bildiruvchi, jarayon, holatning o'zgarishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Ingliz tilidagi –en qo'shimchasi orqali yasaladigan fe'llar biror predmetning hajmi, sig'imini kengayishi yoki torayishini anglatib ham keladi. Masalan: deepen, lengthen, widen, broaden, thicken, heighten va hakoza. Masalan: They have to be polished and smartened up for the concert and there isn't a sign of them [Maevе Binchy, p. 9]. Mazkur fe'llar predmetning holat o'zgarishini bosqichma-bosqich amalga oshirilishini bildiradi va shu sabab ushbu fe'llarni ham inchoativ fe'llar guruhiga kiritish mumkin. Holatning salbiy va ijobiy tomondan o'zgarishini –en suffeksi orqali hosil bo'ladigan inchoativ fe'llar to cheapen, to deafen, to flatten, to freshen, to roughen va hokozolar kiradi.

Shunday qilib, jarayonni o'zgartirish uning semantik tuzilishiga momentni yoki chegarani ko'rsatuvchi, jarayon boshlanadigan vaqtni ko'rsatadigan ma'lumotni kiritish bilan bog'liq. Demak, berilgan analitik ko'rsatkichlar etakchi fe'llar ifodalagan ma'noni boshlang'ich nuqtasini ifodalovchi vositalar hisoblanadi.

## Adabiyotlar:

1. Haspelmath, M. (1993). More on the typology of inchoative/causative verb alternations. In C. Bernard & P. Maria (Eds.), *Causatives and transitivity* (pp. 87–120). Amsterdam: John Benjamins.
2. Nasilov D.M. Проблемы тюркской аспектологийю “Наука”, 1989, с. 43, с. 211.
3. О.С.Ахмановой “Словаре лингвистических терминов” - М.: Советская энциклопедия, 1966 термин “инхоативный” соотносится с видом, обозначающим начало действия (процесса) или его становление (с.75), а также с “формой аориста, обозначающей начало действия, изменение состояния или переход в другое состояние” (с.51).]
4. Hojiev "O'zbek tili grammatikasi" 1975, p. 411; 1979, p. 65-66.
5. Mirsanov G'.Q. Ingliz va o'zbek tillarida yurish harakat fe'llarining aksional va aspektual xususiyatlari. Filol.fan.n.diss. avtoref. –T.:, 2009. – 21 b.